

O'ZBEKISTON QONUNCHILIGIDA XODIMNING SHAXSGA DOIR MA'LUMOTLARI BILAN ISHLASH QOIDALARINING VUJUDGA KELISHI HAMDA JAVOGBARLIK MASALASI

Abdug'ofurov Baxriddin Abdug'ani o'g'li
TDYU Mehnat huquqi magistranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O'zbekiston respublikasida xodimning shaxsga doir ma'lumotlari bilan ishlash qoidalarining vujudga kelishi, ushbu sohadagi huquqbuzarlik uchun qonunchilik doirasida javobgarlik masalalari tahlil etilgan. Huquqbuzarlikning toifasiga ko'ra hamda keltirib chiqargan oqibatiga ko'ra jazo turlari o'rganilgan.*

Аннотация: *В данной статье анализируется возникновение правил обработки персональных данных работников в Республике Узбекистан, вопросы ответственности за нарушения в этой сфере по законодательству. Виды наказаний изучены в зависимости от категории правонарушения и последствий.*

Abstract: *This article analyzes the development of rules for the processing of personal data of employees in the Republic of Uzbekistan, the issues of liability for violations in this area under the law. Types of penalties are studied according to the category of the offense and the consequences.*

Kalit so'zlar: *Shaxs, xodim, mehnat shartnomasi, shaxsiy ma'lumot, qonun, oshkor etish, javobgarlik, jarima, ma'muriy huquqbuzarlik, jinoyat.*

O'zbekiston respublikasi konstitutsiyasida har bir shaxsning mehnat qilish, erkin kasb tanlash, adolatli mehnat sharoitlarida ishlash va qonunda ko'rsatilgan tartibda ishsizlikdan himoyalaniş huquqi(37-modda) hamda har kimning erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqi(25-modda)ga ega ekanligi belgilangan. Shuningdek 27-moddada shaxsning sha'ni, obro'si shaxsiy hayotining daxlsiz ekanligi belgilangan bo'lib unga hech kimning aralashishi mumkin emas. Shunday ekan xodimning shaxsga doir ma'lumotlarini huquqiy muxofaza etish masalasi bosh qomusimiz bo'yicha belgilangan inson huquqlarning amaliyoti hisoblanadi.

O'zbekiston respublikasida shaxsga doir ma'lumotlarni huquqiy muhofaza qilish yangi soha hisoblanadi. 2019-yil 2-iyulda O'zbekiston respublikasi "shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi qonuni qabul qilindi. Qonun 36 moddadan iborat bo'lib, respublikamizda shaxsiy ma'lumotlar muxofazasi bo'yicha asosiy qonun hujjati bo'lib xizmat qilmoqda. Shuningdek, Vazirlar Mahkamisining tegishli qarori bilan tasdiqlangan 2020-yil 8-fevraldagi shaxsga doir ma'lumotlar bazalarining davlat reyestri to'g'risida nizom mavjud bo'lib, respublikada shaxsga doir ma'lumotlar bilan ishlash bo'yicha yuqoridagi qonundan keyingi direktiv normativ hujjat hisoblanadi.

Shaxsiy ma'lumotlar muxofazasi haqida hozirgi vaqtda boshqa huquqiy hujjat mavjud emas. Yangi tahrirdagi O'zbekiston respublikasi mehnat kodeksi esa bir muncha mukammalroq shaklga ega bo'ldi. Unda shaxsga doir ma'lumotlarni huquqiy muxofaza qilishning yanada xususiyroq shakli, ya'ni, xodimning shaxsga doir ma'lumotlarini huquqiy muxofazasiga bag'ishlangan alohida bob mavjud.

Yangi tahrirdagi mehnat kodeksida xodimning shaxsga doir ma'lumotlari bilan ishlash bobi bevosita shaxsga doir ma'lumotlarni muxofaza qilishning yanada xususiyroq sohasi hisoblanadi. Kodeksda shaxsga doir ma'lumotga quyidagicha ta'rif beradi. "Mehnatga oid munosabatlar sababli ish beruvchiga taqdim etilgan, xodimning, shuningdek uning oila a'zolarining hayotidagi faktlar, voqealar va holatlar to'g'risidagi axborot xodimning shaxsga doir ma'lumotlaridir."

Unday ma'lumotlar sirasiga esa:

- familiyasi, ismi, otasining ismi, tug'ilgan sanasi va joyi;
- ma'lumoti (qachon va qaysi ta'lim tashkilotlarini tugatganligi, diplomlari raqamlari, diplom bo'yicha tayyorgarlik yo'nalishi yoki mutaxassisligi, malakasi);
- doimiy yoki vaqtincha yashash joyi bo'yicha ro'yxatdan o'tgan manzili;
- pasportiga oid ma'lumotlar (seriyasi, raqami, kim tomonidan va qachon berilganligi) va ID karta ma'lumotlari;
- shaxsiy telefon raqami, elektron pochta manzili va yana bir qancha xodim haqida axborot beradigan ma'lumotlarni kiritish mumkin.

Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risidagi qonunning qabul qilinishi va joriy etilgan yangiliklar sohadagi katta o'zgarishlar davrini boshlab bermoqda.

Xodimning Shaxsga doir ma'lumotlarni buzganlik uchun javobgarlik ham muhim ahamiyatga ega. Respublikamiz qonunchiligida aynan xodimning shaxsga doir ma'lumotlarni saqlash tartibini buzganlik uchun javobgarlik mavjud emas.

Shuningdek mehnat shartnomasida ham taraflarning javobgarligi masalasida alohida shaxsga doir ma'lumotlarning saqlanishi qismi belgilanishi kerak.

Javobgarlikni belgilovchi normalarning birortasida xodimning shaxsga doir ma'lumotlarini saqlash qoidalarini buzganlik uchun javobgarlik mavjud emas. Bunday xolatda umumiy tartibda shaxsga doir ma'lumotlarni saqlashga oid qonunchilikni buzish bo'yicha javobgarlik mavjud.

O'zbekiston Respublikasi "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi qonuniga muvofiq shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risidagi qonunchilikning buzilishi ma'muriy yoki jinoiy javobgarlikka sabab bo'ladi.

Jarima miqdorlari ba'zaviy hisoblash miqdoriga bog'langan bo'lib, uning miqdori 2022-yil 20-maydagi O'zbekiston respublikasi prezidentining "ish haqi miqdorini oshirish to'g'risida"gi farmoni bilan belgilangan miqdorda hisoblanadi.

Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 46²-moddasida "Shaxsga doir ma'lumotlarni qonunga xilof ravishda yig'ish, tizimlashtirish, saqlash, o'zgartirish, to'ldirish, ulardan foydalanish, ularni berish, tarqatish, uzatish, egasizlantirish va yo'q qilish, — fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining uch baravaridan(900 ming) besh baravarigacha(1mln 500 ming so'm), mansabdor shaxslarga esa — besh baravaridan(1mln 500 ming so'm) o'n baravarigacha(4 mln 500 ming so'm) miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi". Shu qoidadan kelib chiqib xodimning shaxsga doir ma'lumotlarni saqlash, tarqatish, qayta ishlash qoidalarini buzgan shaxslarga ham yuqoridagi jazo choralari qo'llanadi.

Agar ushbu huquqbuzarlik takroran sodir etiladigan bo'lsa endi jinoiy javobgarlik yuzaga keladi.

Demak ma'muriy javobgarlikdan keyingi yuzaga keladigan javobgarlik jinoiy javobgarlik hisoblanadi. Jinoyat kodeksida bir nechta moddalarda shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risidagi qoidalarni buzganlik uchun javobgarlik masalalari belgilangan.

O'zbekiston respublikasi Jinoyat kodeksi 141¹-moddaisda quyidagicha keltiriladi. "Shaxsning shaxsiy yoki oilaviy sirini tashkil etuvchi shaxsiy hayoti to'g'risidagi ma'lumotlarni uning roziligisiz qonunga xilof ravishda yig'ish yoki tarqatish, shunday harakatlar uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin sodir etilgan bo'lsa, —bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravaridan(15 mln so'm) yuz baravarigacha(30 mln so'm) miqdorda jarima yoki uch yuz soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi. O'sha harakatlar:

- a) og'ir oqibatlariga olib kelgan bo'lsa;
- b) g'arazli niyatlarda sodir etilgan bo'lsa;
- v) xavfli retsivist tomonidan sodir etilgan bo'lsa,

—bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravaridan(30 mln so'm) ikki yuz baravarigacha(60 mln so'm) miqdorda jarima yoki uch yuz soatdan uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 141²-moddasida esa aynan shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risidagi qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlikka bag'ishlangan. Unda keltirilishicha agar huquqbuzarga shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risidagi qonunchilikni buzganligi uchun avval ma'muriy javobgarlik belgilangan bo'lsa bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravaridan(30 mln so'm) bir yuz ellik(45 mln so'm) baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish yoxud ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi. Agar ushbu jinoyatlar

- a) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib;
- b) takroran yoki xavfli retsivist tomonidan;
- v) g'arazli yoki boshqa past niyatlarda;
- g) xizmat mavqeyidan foydalangan holda sodir etilgan bo'lsa;
- d) og'ir oqibatlariga sabab bo'lsa,

—bazaviy hisoblash miqdorining bir yuz ellik baravaridan ikki yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yildan uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Ko'rishimiz mumkinki shaxsga doir ma'lumotlar yuasidan sodir etilgan jinoyat uchun belgilangan jazo tizimi bir muncha yengilroq. Ya'ni eng og'ir belgilanishi mumkin bo'lgan jazo 3 yilgacha ozodlikdan mahrum etish jazosidir.

O'zbekiston respublikasi prezidentining "2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmonida yettita ustuvor yo'nalish belgilangan bo'lib, ulardan ikkinchi ustuvor yo'nalish "mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish" hisoblanadi. Mamlakatimizdagi siyosiy, huquqiy, ijtimoiy islohotlar ham hozirgi davrda ko'plab sohalar qatori mehnat munosabatlari sohasida ham zamon talabiga mos o'zgarishlarni talab etmoqda.

Ish beruvchi tomonidan xodimning shaxsga doir ma'lumotlari xavfsizligini saqlash masalasi ichki tartib qoidalarida belgilangan bo'lishi zarur. Shuningdek ish beruvchi tomonidan xodimning shaxsga doir ma'lumotlarini hamda xodim tomonidan ish beruvchiga oid sir saqlanishi zarur bo'lgan ma'lumotlarni oshkor qilish bo'yicha javobgarlik belgilanishi zarur.

Yana bir e'tibor qaratilishi zarur bo'lgan masala ishga kirishga nomzod bo'lgan shaxsning shaxsga doir ma'lumotlari muxofazasi hisoblanadi. Chunki har bir shaxs hali ishga qabul qilinishidan avvalroq o'zi haqidagi ma'lumotlarni ish beruvchiga taqdim etadi. Bu esa ish beruvchiga nomzod shaxsning shaxsga doir ma'lumotlarini tarqatish, qayta ishlash imkonini beradi. Shuning uchun ham qonunchilikka xodimning shaxsga doir ma'lumotlari bilan bir qatorda ishga kirishga nomzod shaxs ma'lumotlari muxofazasini hamda tegishli javobgarlik masalasini ham kiritish zaruriyati tug'iladi.

O'zbekistonda shaxsga doir ma'lumotlar muxofazasi masalasi dolzarb bo'lib borganiz sari, jazolarning ham og'irlashib borishini taxmin qilish mumkin. Chunki keltirib chiqargan oqibatiga qarab jinoyatning kvalifikatsiya qilinishi muhim ahamiyat kasb etadi deb o'ylaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. - T.: "O'zbekiston".2019. - 80 b.
2. O'zbekiston respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi. Toshkent: - "Adolat". 2021-y. 760 b.
3. O'zbekiston respublikasi Jinoyat kodeksi. -Toshkent. "Adolat". 2021. 582 b.
4. O'RQ-547-сoH 02.07.2019. Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida
5. PF-138-сoH 20.05.2022. Ish haqi miqdorini oshirish to'g'risida